



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 10 | pp. 274-281 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA SOLIQLARNI REJALASHTIRISHGA TIZIMLI YONDOSHUVNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



Shermayerev Akbar Aqmirzayevich

Oriental universiteti "Moliya va menejment"
kafedrasida i.f.n., dotsent.

E-mail: shernaev.akbar@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirishning amaldagi mexanizmi tahlili asosida soliqlarni rejalashtirish amaliyotining zaif jihatlari yoritilgan. Soliqlarni rejalashtirishga tizimli yondoshuv hamda uni boshqaruv uslublarini joriy qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar ilmiy o'rganilgan. Aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish amaliyoti hamda samarali boshqaruv tuzilmasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aksiyadorlik jamiyatlar, korporativ boshqaruv, moliya bozori, global iqtisodiyot, investitsiya faoliyati, korxonalar moliya strategiyasi, moliyaviy rejalashtirish, valyuta siyosati, devalvatsiya, revalvatsiya, to'lov balansi, xususiyashtirish, kompaniyalar, diversifikatsiyalash.

THEORETICAL BASIS OF FORMING A SYSTEMATIC APPROACH TO TAX PLANNING IN JOINT STOCK COMPANIES

Shermayerev Akbar Aqmirzayevich

Oriental University "Finance and Management"
Department Ph.D., associate professor.

shernaev.akbar@mail.ru

Abstract: The article highlights the weak aspects of tax planning practice based on the analysis of the current mechanism of tax planning in joint-stock companies. The measures taken to introduce a systematic approach to tax planning and management methods have been scientifically studied. The practice of tax planning and effective management structure in joint-stock companies are presented.

Key words: Joint-stock companies, corporate management, financial market, global economy, investment activity, financial strategy of enterprises, financial planning, currency policy, devaluation, revaluation, balance of payments, privatization, companies, diversification.

KIRISH

Iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashuvi jarayoni, fiskal siyosat va korxonalar soliq salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvi va aksiyadorlik jamiyatlari taraqqiyotining samarali mexanizmlarini davlat tomonidan qo'llash ko'p jihatdan soliqlarni rejalashtirishning samarali tashkil etilishiga ham bevosita bog'liqdir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab korxonalar moliyasini samarali boshqarishga qaratilgan moliya-soliq siyosati olib borilmoqda. Chuqur institutsional o'zgarishlar amalga oshirildi, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini kompleks rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi, maqsadli kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

Korxonalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishni tashkil etishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan tanishish asnosida, avvalambor «soliqlarni rejalashtirish» tushunchasining mazmun-mohiyati, korxonalar moliyasini boshqarish tizimidagi o'rni haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu borada ham avvalo qator iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalarini keltirib o'tamiz.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyalik iqtisodchi olimlar Сердюков А.Э., Вылкова Е.С, Тарасевич А.Л. "Хо'jalik sub'ektlarida soliqlarni rejalashtirish – хо'jalik sub'ektlari yagona iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi doirasidagi moliyaviy-хо'jalik faoliyatini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib, resurslarning cheklanganligi sharoitida korxonaning kelajakdagi moliyaviy holatini belgilash uchun optimal qonuniy soliq to'lash usullaridan va metodlaridan hamda soliq to'lashning mumkin bo'lgan muqobil variantlaridan foydalanish tizimidagi jarayonlarni o'zida aks ettiradi"¹, deb ta'kidlasa, yana ayrim iqtisodchilar tomonidan esa «soliqlarni rejalashtirish tashkilotning moliyaviy resurslarini oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solishga, boshqaruv qarorlari samaradorligiga ta'sir etishga hamda amaldagi qonunchilik bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni o'z vaqtida ta'minlashga yo'naltirilgan rejali faoliyatlar yig'indisi sifatida»², inglizcha-ruscha bank ensiklopedik lug'atida "moliyaviy rejalashtirishning tarkibiy qismi bo'lgan soliq to'lovlarini kechiktirish natijasida investitsiyalarga ega bo'lish, soliqqa tortilmaydigan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va boshqa turli xil soliqlardan qochish yo'llaridan foydalanishni rejalashtirish orqali soliq yukini minimallashtirish"³ sifatida, Jek Fridmanning biznes atamalar lug'atida "joriy va kelgusi davrlarda soliq majburiyatlarini minimallashtirishga yo'naltirilgan turli xil soliqqa tortish muqobil variantlarini tizimli tahlil qilish"⁴ sifatida, rus iqtisodchi olimi Евстигнеев Е.Н. tomonidan esa "qonuniy taqdim etilgan imtiyozlardan foydalanish orqali soliqlarni aylanib o'tishning qonuniy usullari va soliq majburiyatlarini kamaytirish yo'llari"⁵ sifatida yoritiladi. Shuningdek, Н.Г.Иванов soliqlarni rejalashtirishni sub'ektlar bo'yicha davlat tomonidan soliqlarni rejalashtirish va korporativ soliqlarni rejalashtirishga ajratgan holda ularning mohiyatini quyidagi rasmda aks ettirgan Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hamda ularni umumlashtirib shuni aytishimiz mumkinki, soliqlarni rejalashtirish – qonunchilik

¹ Сердюков А.Э., Вылкова Е.С, Тарасевич А.Л. Налоги и налогообложение. – СПб.: «Питер», 2008. – С. 502.

² Сидорова Е.Ю. Налоговое планирование. – М.: «Экзамен», 2006. – С. 20.

³ Федоров Б.Г. Англо-русский банковский энциклопедический словарь. – СПб: «Лимбус Пресс», 1995. – С. 263.

⁴ Friedman J.P. Dictionary of Business Terms. "Barron's Educational Series, Inc., 2000. – 736 p.

⁵ Евстигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. – М.: «ИНФРА-М», 2001. – С. 78.


tomonidan taqdim etilgan engilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliq va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni kamaytirish bo'yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turidir.

MAVZUGA OID MAVJUD MUAMMOLAR.

Davlat tomonidan soliqlarni boshqarishning ahamiyatini davlatning umumiy boshqaruvi tizimida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy fan taraqqiyotini ta'minlashda ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni samarali boshqarish orqali davlat o'z boshqaruv funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlaydi va mamlakat taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bizning fikrimizcha, davlat soliq menejmenti mohiyatini davlatning soliqlar amal qilishi bo'yicha umumiy prinsiplar, metodologik qoidalar ishlab chiqish orqali soliq munosabatlarini tartibga solish borasidagi faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Davlat tomonidan soliqlarni boshqarishning muhimligini soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar vositasi, davlatning daromadlarini ta'minlaydigan, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi takror ishlab chiqarishni tartibga soladigan manba ekanligi bilan ham bog'lashimiz mumkin. Bundan soliqlarni davlat tomonidan boshqarib borish zarurati kelib chiqadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.



1-rasm. Soliqlarni rejalashtirishning tarkibi⁶

⁶ Иванова Н.Г. и др. Налоги и налогообложение. Схемы и таблицы. 2-е изд. – СПб: «Питер», 2004. – С. 340.

Davlat soliq tizimini, soliqqa tortish sohasini tartibga solib turadi va shu orqali davlat jamiyatdagi boshqa ko'plab o'zaro bog'liq sohalarni moliyaviy jihatdan ta'minlaydi va bundan o'z-o'zidan soliqlar va soliqqa tortish sohasini boshqa sohalar taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi markaziy bo'g'in sifatida ko'rishimiz mumkin. Davlat soliqlarni boshqarib borish orqali soliqlar va soliqqa tortish sohasining fan, iqtisodiyot, moliya, siyosat, huquq, ta'lim, ijtimoiy jarayonlar, madaniyat, etika yoki boshqa sohalar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Ya'ni bunda aynan davlat tomonidan soliqlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishini tashkil etish jamiyat miqyosidagi boshqa ko'plab sohalarning moliyalashtirilishiga va shu orqali ularning rivojlanishiga erishiladi. Umuman olganda, davlat soliq menejmenti soliq to'lovlarini undirishni samarali tashkil etish jarayonlariga yo'naltiriladi.

MUAMMONI HAL QILISH USULLARI.

Soliqlarni rejalashtirishning ahamiyati soliqlarni maksimal darajada qisqartirish uchun qonunchilik yo'l qo'ygan usul va vositalar, shu jumladan qonunchilikdagi bo'shliqlardan soliq to'lovchilar foydalanishi natijasida uning prezumpsiya huquqi tan olinishida aks etadi. Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirish soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash bo'yicha chora-tadbirlarni oldindan belgilashda ham namoyon bo'ladi. Umumiy soliq rejalashtirish jarayoniga e'tibor qaratgan holda, yuqori texnologiyali korxonalarini tashkil etish, ishlab chiqarish va faoliyat mazmuni va foydani taqsimlash rejimi uchun soliqni rejalashtirish rejasini taklif qildi⁷.

Soliqlarni rejalashtirishni tashkil etishda yuqorida tanishib chiqqan soliqlarni rejalashtirish elementlarining har birini e'tiborga olgan holda bir-biri bilan o'zaro bog'langan soliq majburiyatlarining pasayishini kafolatlaydigan bir nechta bosqichni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Fikrimizcha, korxonalar yangi tashkil etilish arafasida bo'lsa soliqlarni rejalashtirish strategik va joriy rejalashtirish asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning strategik bosqichlari sifatida quyidagilarni ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

Birinchi bosqich – biznesni tashkil etish haqidagi fikrning paydo bo'lishi, maqsad va vazifalarning qo'yilishi, shuningdek qonunchilik tomonidan taqdim etilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati haqidagi savollarga javob topish (mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib qaror qabul qilish).

Ikkinchi bosqich – korxonaning ishlab chiqarish va boshqaruv binolarini, shuningdek uning filiallarini, sho'ba korxonalarini va boshqaruv organlarini joylashtirishning soliq to'lash nuqtai nazaridan foydali variantlarini tanlash.

Uchinchi bosqich – yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlash va uning soliqqa tortish rejimi bo'yicha paydo bo'ladigan munosabatlarini aniqlash. Soliqlarni joriy rejalashtirish xo'jalik yurituvchi sub'ektni boshqarishning butun tizimi tashkiliy jihatdan qamrab olinadi va rejalashtirish bosqichlari sifatida quyidagilarni e'tirof etishimiz lozim:

To'rtinchi bosqich – korxonalar soliq to'lovchi sifatida barcha imtiyozlarni tahlil qilish orqali soliqqa tortish tizimidagi barcha rejimlar tuzilishini o'rganib chiqish. Natijada

⁷ Jiang, Z. (2015) Research on Tax Planning of High-tech Enterprises. Master's Thesis, Shenyang University of Technology, Shenyang, 10-16.

o'tkazilgan tahlil asosida tanlangan soliqqa tortish rejimidan foydalanish rejasini ishlab chiqish lozim.

Beshinchi bosqich – tanlangan soliqqa tortish rejimini hisobga olgan holda korxonaning shartnomaviy munosabatlari tizimini ishlab chiqish. Bunda soliq oqibatlarini hisobga olish uchun mumkin bo'lgan shartnoma shakllari (ijara, pudrat, savdo-xarid, tekin xizmat ko'rsatish va boshqalar)ni rejalashtirish amalga oshiriladi. Bularning barchasi xo'jalik sub'ekting shartnomalar tizimini tashkil qiladi.

Oltinchi bosqich – moliyaviy va soliq hisobini yuritishda asos bo'lib xizmat qiluvchi tipik xo'jalik operatsiyalarini tuzish bosqichi. Bunda soliq bo'yicha har xil vaziyatlar, mumkin bo'lgan yo'qotishlar, shartli jarimalar va boshqa sanksiyalar natijasidagi moliyaviy ko'rsatkichlar tarkibi tahlil qilinadi va rejalashtiriladi.

Yettinchi bosqich soliqlarni hisoblash va to'lashning to'g'riligi bo'yicha kam xarajatli soliq hisobi va nazoratini tashkil etish bilan bevosita bog'liq. Xatolarga yo'l qo'yish bilan bog'liq risklarni kamaytirishning asosiy usuli soliq hisob-kitoblarini ichki nazorat qilish texnologiyasidan foydalanishdir. Bizning fikrimizcha, yana shuni ham alohida ta'kidlash, soliqlarni rejalashtirish bosqichlarini strategik rejalashtirish, joriy rejalashtirish, operativ rejalashtirish hamda rejalashtirish bo'yicha samaradorlikni baholashga ajratish maqsadga muvofiq.

Yuqorida soliqlarni rejalashtirish orqali korxonalarda soliqlarni qonun doirasida kamaytirish elementlari, yo'nalishlari haqida fikr yuritdik. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning samarali amal qilishi davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga ham sabab bo'ladi. Bunday holatda korxonalarda soliqlarni rejalashtirishni chegaralash bo'yicha davlat tomonidan ham qator chora-tadbirlar ko'riladi.

Faraz qilaylik, korxonalar soliqlar bo'yicha xarajatlar yuqori bo'lganligi uchun o'z biznes faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda bo'linish orqali qayta tashkil etgan. Boshqaruv shakli bo'yicha tarkibiy bo'linmalarni mustaqil yuridik shaxs sifatida ajratish hisobiga xarajatlarni pasaytirish mumkin. Ya'ni bunda soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash hisobiga korxonalar rentabelligi oshishiga erishish mumkin.

Bunda tashkilot bo'linish jarayonida o'zining tarkibini kichik korxonalar sifatida tashkil etish orqali va soliqqa tortish jarayonida soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish tizimiga o'tishi uchun, avvalambor, faoliyat sohasi va soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish rejimiga o'tish mezonini bo'yicha talablarga javob berishi lozim.

Mamlakatimizda soddalashtirilgan tartibda soliqqa tortish tizimi ayrim faoliyat sohaslariga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 350-moddasiga asosan aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqaruvchi va er qaridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tatbiq etilmaydi.

Yagona soliq to'loviga o'tish mumkin bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi. Bunda:

- xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

- xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tUSDagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

- yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezonini qabul qilinadi.

Ayni vaqtda amaliyotda ko'plab tadbirkorlik sub'ektlarida qonunchilikda belgilangan xodimlar soni bo'yicha chegara doirasida faoliyat yuritishni ta'minlash bir muncha murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. Natijada bunday kompaniyalar o'z biznes faoliyatini bo'lishga majbur bo'ladilar. Shunda har bir bo'linma maxsus soliq rejimi mezonlari bo'yicha soddalashtirilgan soliqqa tortish rejimiga o'tish uchun o'rnatilgan mezonlarga muvofiq ravishda faoliyat yuritishi ta'minlanadi. Aytaylik, birinchi navbatda ko'rsatilgan barcha savollar taxminan hal qilingan. Bunda korxonani qayta tashkil etish natijasida iqtisodiy samara bo'yicha savollar paydo bo'ladi. Bunda erishilgan natija butun faoliyat bo'yicha soliq yukining qaydarajada pasayganligida namoyon bo'ladi. Shuning uchun korxonaga to'laydigan soliq summalarini hamda yangi tarkibiy bo'linmalar to'laydigan soliq summalarini taqqoslanadi. Yuqori texnologiyali korxonaga soliq rejalashtirish xavfini tartibga solishga e'tibor qaratgan holda soliqni rejalashtirish xavfining xususiyatlaridan qochishadi⁸.

ILMIY ASOSLANGAN TAKLIF VA TAVSIYALAR.

Aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish samaradorligi omillari tizimi turli usullar yordamida turkumlanishi mumkin. U yoki bu omillar bog'liqligi va munosabatlari xususiyatiga ko'ra tizim elementlari turlicha bo'lishi mumkinki, bu narsa tizimning ko'p o'lchamliligini nazarda tutadi. Bunday mezonlar sifatida aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish samaradorligining u yoki bu tasnifiy belgilari maydonga chiqishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish samaradorligi omillarini turli tasnifiy belgilariga qarab tasniflash ularning tabiati, mohiyati va farq qiluvchi xususiyatlarini yanada to'laroq o'rganishga imkon beradi.

Davlatning samarali soliq siyosati istiqbollarda uning fiskal mexanizmini takomillashtirish konseptual asoslarini takomillashtirish borasida sezilarli muammolar mavjud: davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish manbalaridan to'laqonli foydalanishning soliq rag'batlarining zaifligi; respublikamiz soliq-byudjet amaliyotida egri soliqlarning iqtisodiy funksiyasidan to'laqonli foydalanilmayapti va bu egri soliqlarning byudjet solikli daromadlarini shakllantirishdagi rolining sezilarli darajada pasayishiga sabab bo'lmoqda; soliq amaliyotida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlari davlat byudjeti daromadlarining shakllanishiga nisbatan sezilarli salbiy ta'sirni yuzaga keltirgan va buning oqibatida, davlat byudjeti daromadlarining sezilarli qismi undirilmasdan qolmoqda.

Davlatda soliq ahloqi va soliq mentalitetining shakllanishi daromadlari darajasi, ma'lumoti, bandlik turi, har xil demografik belgilari turlicha bo'lgan soliq to'lovchilar

⁸ Tian, Z. and Ding, H. (2009) Tax Planning for High-Tech Enterprises under the New Tax System. Northern Economy and Trade, No. 7, 2-3.

guruhlarini tahlil qilishga yondoshuvlar va tamoyillarning farqlanishi lozimligini shart qilib qo'yadiki, buning natijasida davlat maqsadlarida fiskal instrumentdan foydalanish nuqtai-nazaridan soliq nazoratining yangi shakllari yuzaga keladi.

Davlatning fiskal vazifalari ijrosini ta'minlash yoki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish moliyaviy asoslarining shakllanishiga ijobiy ta'sir etishning muhim omillaridan biri – korporativ soliqlarni rejalashtirishdir, ya'ni korxonaning soliqlar yuzasidan to'lov intizomiga rioya etilishi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa yuqoridagi vazifalar ijrosi shunchalik to'liq ta'minlanadi va aksincha, soliqlar yuzasidan to'lov intizomiga rioya etilishi darajasi qanchalik past bo'lsa moliyaviy havfsizlik maqsadida fiskal vazifalar ijrosi shunchalik qiyinlashadi.

Soliq amaliyotimizda korporativ soliqlarni rejalashtirish maqsadida korxonalar soliq intizomini mustahkamlashga oid hozirda mavjud bo'lgan muammolar yaqin istiqbolda hal qilinishi lozim bo'lgan zarur tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi va ularni hal etish, avvalo, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy usullarni qo'llash orqali soliq solish bazasini kengaytirish va soliqlar yig'iluvchanligini oshirishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Сердюков А.Э., Вылкова Е.С, Тарасевич А.Л. Налоги и налогообложение. – СПб.: «Питер», 2008. – С. 502.
2. Сидорова Е.Ю. Налоговое планирование. – М.: «Экзамен», 2006. – С. 20.
3. Федоров Б.Г. Англо-русский банковский энциклопедический словарь. – СПб: «Лимбус Пресс», 1995. – С. 263.
4. Friedman J.P. Dictionary of Business Terms. "Barron's Educational Series, Inc., 2000. – 736 p.
5. Евстигнеев Е.Н. Налоги и налогообложение. – М.: «ИНФРА-М», 2001. – С. 78.
6. Иванова Н.Г. и др. Налоги и налогообложение. Схемы и таблицы. 2-е изд. – СПб: «Питер», 2004. – С. 340.
7. Jiang, Z. (2015) Research on Tax Planning of High-tech Enterprises. Master's Thesis, Shenyang University of Technology, Shenyang, 10-16.
8. Tian, Z. and Ding, H. (2009) Tax Planning for High-Tech Enterprises under the New Tax System. Northern Economy and Trade, No. 7, 2-3.
9. SHERNAEV A.A. ON THE ISSUE OF THE EFFICIENCY OF TAXATION OF JOINT STOCK COMPANIES // «EKONOMIKA I BIZNES: teoriya i praktika». Mejdunarodnyy yezemesyachnyy nauchnyy jurnal - №9-2 (67). Moskva, izd. ООО «Kapital», 2020. – s. 149-152.
10. Shernaev A.A. GENERAL METHODOLOGICAL BASES OF TAX PLANNING IN ENTERPRISES // International Journal of Economics, Commerce and Management United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April 2020 Licensed under Creative Common Page 357
11. Shernaev A.A. Nalogovoe planirovanie v sisteme obespecheniya finansovoy bezopasnosti v akcionerных обществax // «Internauka»: nauchnyy jurnal - № 12(141). Chast 2. Moskva, izd. «Internauka», 2020. - s. 43-45

12. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378.

13. Shernaev, A. A. (2020). Sovershenstvovanie nalogovogo planirovaniya v aktsionnykh obshchestvakh-kak mexanizm povysheniya effektivnosti finansovogo menedjmenta. Ekonomika i obshchestvo, (4), 20-28.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

